



# FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(2021- yil yanvar-noyabr  
oylari uchun dastlabki  
ma'lumot)*

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1685,0** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020-yilga nisbatan **413,0** mln. AQSh dollariga yoki **32,5** % ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (2021-yil yanvar-noyabr mln. AQSh dollari)

	2020-yil	2021-yil	O'sish sur'ati, %da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	1 272,0	1 685,0		x
<b>Eksport</b> 	495,3	746,4	<b>150,7 %</b>	100,0
 tovarlar	487,5	730,1	97,8	97,8
 xizmatlar	7,8	16,3	207,6	2,2
<b>Import</b> 	776,6	938,6	<b>120,8 %</b>	100,0
 tovarlar	766,2	933,8	121,9	99,5
 xizmatlar	10,4	4,8	46,2	0,5
 Saldo	-281,5	-192,2	x	x



*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi **746,4** mln. AQSh dollariga (**50,7** %ga ko'paydi) va import hajmi **938,6** mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati **120,8** %ga teng bo'ldi) yetdi. Hisobot davrida **-192,2** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## FARG'ONA VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021-yil yanvar-noyabr mln. AQSh dollari)



**Xitoy Xalq Respublikasi**

TSA -398,4  
Eksport – 109,9  
Import – 288,4



**Rossiya Federatsiyasi**

TSA– 389,4  
Eksport – 217,8  
Import – 171,6



**Qozog'iston**

TSA – 243,0  
Eksport – 49,1  
Import – 193,9



**Qirg'iziston**

TSA – 124,6  
Eksport – 84,4  
Import – 40,2



**Turkiya**

TSA – 113,4  
Eksport– 70,9  
Import – 42,6



**Turkmaniston**

TSA – 76,0  
Eksport –9,8  
Import – 66,2



**Polsha**

TSA – 37,2  
Eksport – 30,8  
Import – 6,5



**Afg'oniston**

TSA – 34,4  
Eksport -34,4  
Import – 0,0



**Tojikiston**

TSA – 30,0  
Eksport – 19,7  
Import – 10,3



**Koreya Respublikasi**

TSA – 25,1  
Eksport -6,6  
Import – 18,5




Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan



## 20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021-yil yanvar-noyabr)













Farg'ona, jahonning **80** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**23,6 %**), Rossiya Federatsiyasida (**23,1 %**), Qozog'istonda (**14,4 %**), Qirg'iziston (**7,4 %**), Turkiya (**6,7 %**) va Turkmanistonda (**4,5 %**) qayd etilgan.



## FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2021-yil yanvar- noyabr, mln. AQSh dollari)













Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>367,8</b>	<b>316,6</b>	<b>398,3</b>
<i>Eksport</i>	96,4	64,9	109,9
<i>Import</i>	271,4	251,7	288,4
 <b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>260,3</b>	<b>286,5</b>	<b>389,4</b>
<i>Eksport</i>	121,6	135,4	217,8
<i>Import</i>	138,7	151,2	171,6
 <b>Qozog'iston</b>	<b>148,3</b>	<b>188,0</b>	<b>243,0</b>
<i>Eksport</i>	46,4	28,3	49,1
<i>Import</i>	101,9	159,7	193,9
 <b>Qirg'iziston</b>	<b>141,6</b>	<b>144,2</b>	<b>124,6</b>
<i>Eksport</i>	106,0	114,7	84,4
<i>Import</i>	35,6	29,5	40,2
 <b>Turkiya</b>	<b>92,2</b>	<b>65,3</b>	<b>113,4</b>
<i>Eksport</i>	54,3	34,4	70,9
<i>Import</i>	38,0	30,9	42,6
 <b>Turkmaniston</b>	<b>7,9</b>	<b>30,7</b>	<b>76,0</b>
<i>Eksport</i>	0,8	4,7	9,8
<i>Import</i>	7,1	26,0	66,2
 <b>Polsha</b>	<b>21,9</b>	<b>22,3</b>	<b>37,2</b>
<i>Eksport</i>	15,9	21,0	30,8
<i>Import</i>	5,9	1,3	6,5
 <b>Afg'oniston</b>	<b>13,9</b>	<b>12,8</b>	<b>34,4</b>
<i>Eksport</i>	13,9	12,8	34,4
<i>Import</i>	-	-	-
 <b>Tojikiston</b>	<b>35,3</b>	<b>28,4</b>	<b>30,0</b>
<i>Eksport</i>	14,1	12,4	19,7
<i>Import</i>	21,2	16,0	10,3
 <b>Pokiston</b>	<b>1,1</b>	<b>3,3</b>	<b>25,2</b>
<i>Eksport</i>	1,0	3,3	24,8
<i>Import</i>	0,1	-	0,4



## FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(2021-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)




	Davlatlar	2019- y.	2020-y.	2021-y.
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>29,6</b>	<b>26,5</b>	<b>25,1</b>
	<i>Eksport</i>	4,8	7,1	6,6
	<i>Import</i>	24,8	19,5	18,5
	<b>Germaniya</b>	<b>23,6</b>	<b>18,5</b>	<b>21,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,8	1,6	4,4
	<i>Import</i>	22,8	17,0	16,6
	<b>Misr</b>	<b>11,7</b>	<b>9,3</b>	<b>15,5</b>
	<i>Eksport</i>	11,2	9,2	15,3
	<i>Import</i>	0,5	0,1	0,2
	<b>Hindiston</b>	<b>3,4</b>	<b>8,6</b>	<b>11,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	1,4	0,3
	<i>Import</i>	3,1	7,3	11,3
	<b>Belarus</b>	<b>4,6</b>	<b>5,9</b>	<b>11,4</b>
	<i>Eksport</i>	1,8	3,6	5,9
	<i>Import</i>	2,8	2,3	5,5
	<b>Vyetnam</b>	<b>5,5</b>	<b>3,4</b>	<b>11,2</b>
	<i>Eksport</i>	5,3	2,2	7,1
	<i>Import</i>	0,2	1,2	4,1
	<b>Ukraina</b>	<b>11,6</b>	<b>7,1</b>	<b>10,9</b>
	<i>Eksport</i>	7,3	4,8	4,7
	<i>Import</i>	4,3	2,3	6,2
	<b>Eron</b>	<b>5,4</b>	<b>3,0</b>	<b>9,6</b>
	<i>Eksport</i>	1,6	0,4	6,4
	<i>Import</i>	3,8	2,6	3,2
	<b>Litva</b>	<b>10,1</b>	<b>6,9</b>	<b>8,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,6	1,3	1,3
	<i>Import</i>	9,6	5,5	7,4
	<b>Italiya</b>	<b>5,0</b>	<b>8,2</b>	<b>8,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	0,4	2,6
	<i>Import</i>	4,3	7,9	5,8



## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2021-yil yanvar-noyabr) \*



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1 685,0</b>	<b>132,5</b>
Farg'ona sh.	296,9	131,0
Qo'qon	325,4	139,1
Quvasoy	51,2	62,4
Marg'ilon	78,0	108,3
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq t.	103,8	123,6
Qo'shtepa	58,0	125,0
Bag'dod	18,2	137,4
Buvayda	22,2	154,0
Beshariq	47,8	201,8
Quva	49,9	123,2
Uchko'prik	170,5	123,2
Rishton	22,5	174,7
So'x	2,9	50,9
Toshloq	170,0	149,5
O'zbekiston	44,6	136,2
Farg'ona	57,7	122,5
Dang'ara	51,1	113,5
Furqat	15,9	296,9
Yozyovon	96,2	303,5

Eng yuqori ulush, (%da)

Qo'qon sh – 19,3%

Farg'ona sh – 17,6%


Toshloq t – 10,1%

Eng quyi ulush, (% da)

So'x t – 0,2%

Furqat t – 0,9%

Bag'dod t – 1,1%







Farg'ona viloyatining tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **52,8** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020-yilga nisbatan **28,1** % ga ko'paydi.

### FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLUKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(2021-yil yanvar- noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, %)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida 2020-yilga nisbatan **37,7** %ga ko'paydi va jami TSA dagi ulushi **47,2** %ni tashkil etdi.





## FARG'ONA VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2021-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (23,1 %), Qozog'iston (14,4 %), Qirg'iziston (7,4 %), Turkmaniston (4,5 %) va Tojikiston (1,8 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## FARG'ONA VILOYATI EKSPORTI


(2021-yil yanvar-noyabr)



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni **704** tani tashkil etib, ular tomonidan **746,4** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **50,7** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021-yil yanvar-noyabr, ulushi, %da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **89,2** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**51,1** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**32,1** %) va turli xil tayyor buyumlar (**6,0** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## FARG'ONA VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI (2021-yil yanvar-noyabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nis- batan. %da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
<b>Jami eksport</b>	<b>495,3</b>	<b>746,4</b>	<b>93,1</b>	<b>150,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	186,7	239,4	86,0	128,2	37,7	32,1
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,3	451,0	80,6	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	35,0	29,2	149,7	83,6	7,1	3,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,0	9,7	30,0	161,7	1,2	1,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	0,0	196,9	4,8	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,8	21,5	371,5	181,8	2,4	2,9
Sanoat tovarlari	219,3	381,3	88,5	173,9	44,3	51,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	1,0	3,8	161,8	373,3	0,2	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	26,7	44,8	247,4	168,2	5,4	6,0
Xizmatlar	7,9	16,3	90,2	207,6	1,6	2,2



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021-yil yanvar-noyabr)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	203,4	117,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	32,5	3,0 m.
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	0,2	183,9
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,4	121,3
<b>Ichimliklar</b>		
Ichimliklar	0,3	83,3
<b>Tamaki va tamaki mahsulotlari</b>		
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	13,7	136,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	2,0	12,4
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	2,0	74,2
Qog'oz massasi va makulatura	4,6	180,4
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9,7	163,4
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,02	4,8
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa toifaga kiritilmagan kimyoviy mahsulotlar	1,8	181,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,6	9,4 m
O'g'itlar	16,1	170,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,2	205 m.



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021-yil yanvar-noyabr)




XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	363,4	175,5
Boshqa toifaga kiritilmagan metelldan tayyorlangan mahsulotlar	1,1	44,5
Qog'oz va karton	1,3	2,6 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	15,0	173,4
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	2,4	3,8 m.
Aniq sohalar uchun mashina va uskunalar	0,4	8,9 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,2	130,4
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	30,3	192,3.
Har xil tayyor buyumlar	6,5	122,8
Poyabzal	6,9	130,0

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2021-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yilning yanvar-noyabriga **56,2** %dan 2021-yilning yanvar-noyabriga **52,8** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **47,2** %ni tashkil etdi.



Rossiya Federatsiyasi



29,2

Polsha



Afg'oniston



Qozog'iston



Turkiya



Xitoy Xalq Respublikasi



14,7

Qirg'iziston



11,3

9,5

6,6



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021-yil yanvar-oktabr, %da)

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **29,2** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**14,7** %i), Qirg'iziston (**11,3** %), Turkiya (**9,5** %), Qozog'iston (**6,6** %), Afg'oniston (**4,6** %) va Polsha (**4,1** %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **80,0** foizni tashkil etmoqda.



**FARG'ONA VILOYATI ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI  
VA O'SISH SUR'ATLARI (2021-yil yanvar- noyabr yillar kesimi)**




Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Rossiya Federatsiyasi	135,4	217,8	111,3	160,9	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	64,9	109,9	67,3	169,4	3	2
Qirg'iziston	114,7	84,4	108,2	73,6	2	3
Turkiya	34,4	70,9	63,4	2,1 m.	4	4
Qozog'iston	28,3	49,1	60,9	173,9	5	5
Afg'oniston	12,8	34,4	92,3	2,7 m.	7	6
Polsha	21,0	30,8	132,2	146,2	6	7
Pokiston	3,3	24,8	328,4	7,6 m.	15	8
Tojikiston	12,3	19,7	87,5	159,2	8	9
Misr	9,2	15,3	82,2	166,6	9	10
Turkmaniston	4,7	9,8	5,9 m.	2,1 m.	13	11
Bangladesh	8,8	8,0	82,8	90,8	10	12
Vyetnam	2,2	7,1	41,7	3,2 m.	16	13
Koreya Respublikasi	7,1	6,6	146,6	93,6	11	14
Belgiya	1,7	6,6	60,8	3,8 m.	18	15
Eron	0,4	6,4	25,2	16 m.	20	16
Belarus	3,6	5,9	196,3	161,7	14	17
Portugaliya	2,0	4,7	126,9	2,4 m.	17	18
Ukraina	4,8	4,7	65,9	96,6	12	19
Germaniya	1,6	4,4	199,3	2,7 m.	19	20



## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021-yil yanvar-noyabr)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>746,4</b>	<b>150,7</b>
Farg'ona sh.	76,2	223,6
Qo'qon	138,6	143,3
Quvasoy	16,3	91,9
Marg'ilon	12,9	165,7
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq t.	80,2	131,3
Qo'shtepa	39,7	233,7
Bag'dod	13,0	185,8
Buvayda	16,1	158,1
Beshariq	10,7	70,8
Quva	37,0	133,4
Uchko'prik	51,6	203,8
Rishton	19,6	172,6
So'x	2,2	80,5
Toshloq	137,6	144,2
O'zbekiston	16,6	90,7
Farg'ona	35,3	152,8
Dang'ara	12,5	98,5
Furqat	8,4	289,4
Yozyovon	20,8	292,9

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Qo'qon sh – 138,6**

**Toshloq t – 137,6**

**Oltiariq t – 80,2**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**So'x t – 2,2**

**Furqat t – 8,4**

**Beshariq t – 9,90,7**

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Qo'qon shahar **19,5 %** ulush bilan **138,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni So'x tumani **0,3 %** ulush bilan **2,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Farg'ona meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **204,3** mln. AQSh dollari qiymatiga teng **280,6** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020-yilning mos davriga nisbatan **29,7** mln. AQSh dollarida o'sish kuzatilib, **17,0** %ga o'sdi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **25,2** mln. AQSh dollariga teng **60,7** ming tonna sabzavot, shuningdek, **115,7** mln. AQSh dollari qiymatidagi **119,9** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021-yil yanvar-noyabr)



**Meva va rezavorlar**  
119,9 ming. t  
115,7mln. AQSh. doll



**Sabzavotlar**  
60,7 ming. t  
25,2 mln. AQSh.doll



**Uzum**  
86,8 ming t  
57,3 mln. AQSh. doll



**Yer yong'oq**  
2,3 ming. t  
1,8 mln. AQSh. doll



**Qurutilgan uzum (mayiz)**  
1,6 ming. t  
1,2 mln. AQSh. doll



**Tarvuz va qovun**  
9,2 ming t  
3,1 mln. AQSh. doll










Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Ukraina hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **27,4 %** ni tashkil etdi.

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021-yil yanvar-noyabr)



Davlatlar	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	133,4	109,6	53,6
 Qirg'iziston	41,5	49,1	24,0
 Qozog'iston	95,9	36,9	18,1
 Afg'oniston	0,9	0,7	0,3
 Ukraina	3,4	1,6	0,7
 Pokiston	0,8	0,7	0,3
 Boshqa davlatlar	4,7	5,7	2,8

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **(53,6 %)**, bu Pokiston eksport hajmidan **5,2** baravar ko'pdir.

## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI












To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **395,8** mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **53,0** % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **73,7** % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**78,3** %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**7,7** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **184** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **48** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(2021-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)


















		2019-yil	2020-yil	2021-yil
<b>Tovar nomi</b>		<b>249,2</b>	<b>227,8</b>	<b>395,8</b>
	Paxtadan yigirilgan ip	210,1	169,4	309,8
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	5,3	15,7	30,3
	Gilamlar	0,0	0,1	0,2
	Naqshli mato	4,0	5,4	6,0
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	3,1	3,7	6,6
	Paxtadan gazlamalar	17,4	22,5	31,4
	Ipak va ipak mahsulotlari	6,1	6,4	5,7
	Paxta mahsulotlari	2,5	3,8	5,0
	Boshqalar	0,7	0,8	0,8



## DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(2021-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)




		2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Xitoy Xalq Respublikasi	93,9	63,0	103,7
	Rossiya Federatsiyasi	49,1	51,4	82,8
	Turkiya	39,9	31,6	66,7
	Polsha	13,0	20,6	27,8
	Pokiston	0,0	2,1	23,7
	Misr	11,2	9,2	15,0
	Qirg'iziston	1,7	6,7	12,4
	Bangladesh	10,6	8,8	8,0
	Eron	1,0	0,4	6,4
	Belgiya	2,1	1,7	6,1
	Portugaliya	1,6	1,9	4,7
	Respublika Koreya	4,0	4,1	3,4
	Peru	0,1	1,2	3,1
	Tojikiston	4,0	1,2	2,8
	Boshqa davlatlar	17,1	23,8	29,3

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (**103,7** mln. AQSh dollari – **26,2** %) , Rossiya Federatsiyasi (**82,8** mln. AQSh dollari – **20,9** %) va Turkiya (**66,7** mln. AQSh dollari – **16,9** %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2021-yil yanvar-noyabr, ulushi, %da)



Xizmatlar eksporti hajmi **16,3** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **2,2** %ni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan **2,1 m.** ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**88,2** %) va safarlar (turizm) (**3,1** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**1,3** %) hamda moliyaviy xizmatlar (**7,3** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI

(2021-yil yanvar-noyabr)




2021-yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi **938,6** mln. AQSh dollarini va 2020-yilga nisbatan **20,8** %ga o'sdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**28,3** %), sanoat tovarlari (**19,8** %) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**26,8** %) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021-yil yanvar-noyabr, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar-noyabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **167,5** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **933,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **4,8** mln. AQSh dollariga yetdi.

## FARG'ONA VILOYATINING XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (2021-yil yanvar-noyabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
<b>Jami import</b>	<b>776,7</b>	<b>938,6</b>	<b>101,8</b>	<b>120,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	145,8	185,4	73,9	127,2	18,8	19,8
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,7	124,8	1068,8	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16,5	15,6	213,1	94,5	2,1	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	175,6	251,5	250,6	143,2	22,6	26,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	16,5	15,6	213,1	94,5	2,1	1,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	56,2	43,1	94,3	76,7	7,2	4,6
Sanoat tovarlari	145,8	185,4	73,9	127,2	18,8	19,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	244,6	265,8	82,5	108,7	31,5	28,3
Turli xil tayyor buyumlar	22,0	25,2	96,4	114,4	2,8	2,7
Xizmatlar	10,4	4,8	109,7	46,2	1,3	0,5

## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021-yil yanvar-noyabr)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, %da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	74,8	131,2
Tirik xayvonlar, 03 bo'limiga kiritilgan xayvonlardan tashqari	11,2	140,8
Xayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	4,0	2,1 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8,8	121,7
Meva va sabzavotlar	15,0	111,6
Go'sht va go'sht mahsulotlari	4,4	5,4 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,7	10 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	9,9	117,4
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,3	2,9 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	11,2	3,3 m.
Kauchuk	1,5	91,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	236,6	142,1
Ko'mir, koks va briketlar	14,9	161,4
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	15,6	94,5
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	5,8	46,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	12,3	113,8
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7,2	89,1
Bo'yoqlar	6,1	46,4
Noorganik kimyoviy vositalar	7,0	79,0





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021-yil yanvar-noyabr)




XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, %da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	45,0	133,4
Metaldan tayyorlangan buyumlar	21,3	124,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	28,3	81,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	37,5	2,3 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	115,2	103,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	73,8	94,8
Elektr apparatlar va asbob uskunalar	23,9	156,7
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	25,1	110,7
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	7,9	173,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	7,7	72,9
Har xil tayyor buyumlar	4,8	132,4
Mebel va uning qismlari	0,8	2,0 m.
Poyafzal	1,0	164,9


MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi 52,8:47,2 nisbatni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2021-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha Farg'ona viloyati tomonidan **69** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Qirg'iziston Turkiya va Koreya Respublikasi jami importning **87,5** % ulushini tashkil qildi, bu **821,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2021-yil yanvar-noyabr %da)

**FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARIGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI  
VA O'SISH SUR'ATLARI (2021-yil yanvar-noyabr, yillar kesimi)**




Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	251,7	288,4	92,7	114,6	1	1
Qozog'iston	159,7	193,9	156,7	121,4	2	2
Rossiya Federatsiyasi	151,2	171,6	109,0	113,5	3	3
Turkmaniston	26,0	66,2	3,6 m.	2,5 m.	6	4
Turkiya	30,9	42,6	81,4	137,7	4	5
Qirg'iz Respublikasi	29,5	40,2	82,7	136,5	5	6
Koreya Respublikasi	19,5	18,5	78,4	95,0	7	7
Germaniya	17,0	16,6	74,5	98,1	8	8
Hindiston	7,3	11,3	2,3 m.	156,0	11	9
Tojikiston	16,0	10,4	75,7	64,6	9	10
Litva	5,5	7,4	57,9	134,5	12	11
Polsha	1,3	6,5	21,8	5,0 m.	18	12
Ukraina	2,3	6,2	53,3	2,7 m.	15	13
Italiya	7,9	5,8	183,4	74,2	10	14
Cheh Respublikasi	2,2	5,8	3,1 m.	2,6 m.	17	15
Belarus	2,3	5,5	81,8	2,4 m.	16	16
Shveysariya	2,9	4,9	103,6	169,9	13	17
Vyetnam	1,2	4,1	7,2 m.	3,5 m.	19	18
Ekvador	0,9	3,3	50,6	3,8 m.	20	19
Eron	2,6	3,2	68,6	123,7	14	20



## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2021-yil yanvar-noyabr)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>938,6</b>	<b>120,8</b>
Farg'ona sh.	220,7	114,6
Qo'qon	186,8	136,1
Quvasoy	34,9	54,3
Marg'ilon	65,1	101,4
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq t.	23,6	103,0
Qo'shtepa	18,3	62,2
Bag'dod	5,3	83,6
Buvayda	6,1	144,3
Beshariq	37,1	432,4
Quva	12,9	101,0
Uchko'prik	118,9	105,1
Rishton	2,9	190,8
So'x	0,7	24,0
Toshloq	32,4	176,8
O'zbekiston	28,0	193,9
Farg'ona	22,4	93,3
Dang'ara	38,6	119,4
Furqat	7,4	306,0
Yozyovon	75,4	306,6

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Farg'ona sh – 220,7**

**Qo'qon sh – 186,8**

**Uchko'prik t – 118,9**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**So'x t – 0,7**

**Rishton t – 2,9**

**Bag'dod – 5,3**

Viloyat importida tarkibida eng yuqori ulushni Farg'ona shahar **23,5** % ulush bilan **220,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida tarkibida eng quyi ulushni So'x tumani **0,1** % ulush bilan **0,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **265,8** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,7 %** ga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **28,3 %** ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-noyabr)



62,5%	XZR 166,1 mln. AQSH. dollari
9,9 %	Turkiya 26,4 mln. AQSH.dollari
4,4 %	Germaniya 11,7 mln. AQSH. dollari
3,2 %	Koreya Respublikasi 8,6 mln. AQSH. dollari
3,3 %	Hindiston 8,8 mln. AQSH. dollari

Mashina va transport uskunalari importi hajmining o'sishiga, avtomobillar (25,1 mln. AQSH. doll), sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar (73,8 mln. AQSH. dollari), elektr mashinalari, apparatlar va asboblari (23,9 mln. AQSh. dollari), boshqa transport uskunalari (0,8 mln. AQSH. dollari), energogenerator asbob va uskunalari (6,9 mln. AQSH. dollari), metallarni qayta ishlash uchun asbob uskunalari (5,8 mln. AQSH. dollari) da keltirilganligi sabab bo'lgan.



## SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **185,8** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **27,2** % ga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **19,8** % ga yetdi.

### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-noyabr)



#### Xitoy Xalq Respublikasi

75,7 mln. AQSh dollari  
ulushi – 42,0 %



#### Rossiya Federatsiyasi

50,6 mln. AQSh dollari  
ulushi – 28,2 %



#### Qirg'iziston

15,2 mln. AQSh dollari  
ulushi – 8,5 %




#### Tojikiston

9,8 mln. AQSh dollari  
ulushi – 5,5 %



#### Qozog'iston

8,0 mln. AQSh dollari  
ulushi – 4,5 %



Sanoat tovarlari importi asosan to'qimachilik, yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**37,5** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**21,3** mln. AQSh dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan buyumlar (**28,3** mln. AQSh dollari), cho'yan va po'lat (**45,0** mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

## OZIQ OVQAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2021-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida oziq-ovqat tovarlari hajmi **120,0** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **33,3** %ga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **12,8** %ga yetdi.

### OZIQ OVQAT MAHSULOTLARINI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-noyabr)



#### Qozog'iston

77,1 mln. AQSh dollari  
ulushi – 64,2 %



#### Xitoy Xalq

#### Respublikasi

9,4 mln. AQSh dollari  
ulushi – 7,8 %



#### Qirg'iziston

5,1 mln. AQSh dollari  
ulushi – 4,3 %



#### Ekvador

3,3 mln. AQSh dollari  
ulushi – 2,7 %



#### Rossiya Federatsiyasi

4,0 mln. AQSh dollari  
ulushi – 3,4 %



Oziq ovqat importi asosan donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (**74,8** mln. AQSh dollari), meva va sabzavotlar (**15,0** mln. AQSh dollari), tirik hayvonlar (**11,2** mln. AQSh dollari), go'sht va go'sht mahsulotlari (4,4 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.: (73) 241-97-68

